

«HUDUDGAZ TOSHKENT»

gaz ta'minoti filiali

**TABIY GAZNI ULGURJI
ISTE'MOLCHILARGA
ETKAZIB BERISH VA QABUL QILISH
SHARTNOMASI**

№12-16/183 -son

Iste'molchi nomi: T.BHP554UT do'raq yil

Iste'molchining xos raqami 11600119

Faoliyat turi: Do'raq yil

Tabiiy gazni ulgurji iste'molchilarga etkazib berish va qabul qilish

SHARTNOMASI

2022 yil "26" yanvar № 12-16/183 -son

Nurafshon shaxar
(shartnoma tuzilgan joy)

Nizom asosida faoliyat yurituvchi « TBPP 66 YUT Davao
(Iste'molchi nomi)(keyingi o'rinlarda "Iste'molchi" deb ataladi), rahbar
Y. S. M. T. J. X. T. A. K. A. Z. A. P. O. B. A.
bir tomondan hamda Nizom va 2022 yil 5 yanvarda berilgan 03-19-11/41-son
ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi "Hududgaz Toshkent" gaz ta'minoti filiali (ga
ta'minoti tashkiloti nomi)(keyingi o'rinlarda "Etkazib beruvchi" deb ataladi), rahbar
M. R. Aliev ikkinchi tomondan, quyidagilar to'g'risida mazkur shartnoman
tuzdilar:

I. SHARTNOMA PREDMETI

1.1. Etkazib beruvchi o'z zimmasiga gaz tarmoqlari orqali Iste'molchining kelishilgan
buyurtmanomasi bo'yicha tabiiy gaz (keyingi o'rinlarda gaz deb ataladi) etkazib berish majburiyatini
oladi, Iste'molchi esa o'z zimmasiga ushbu shartnomaning 1.4-bandida ko'rsatilgan hajmda gazni
qabul qilish majburiyatini oladi hamda to'lovlarni belgilangan narx bo'yicha o'z muddatida amalga
oshiradi.

1.2. Etkazib beruvchi gazni ushbu shartnomaga va gazlashtirish loyhasiga muvofiq, gazda
foydalanish uchun standartlashtirilgan va sertifikatga ega gaz qurilmalari, shuningdek, elektron gazni
hisoblash priborlari (keyingi o'rinlarda hisoblash priborlari deb ataladi) mavjud bo'lganda Etkazib
beradi.

1.3. Iste'molchi Etkazib beruvchiga tasdiqlangan me'yorlarga (Tabiiy gazdan foydalanish
qoidalarining 6-bandiga) asosan ishlab chiqariladigan mahsulotga (yoki ko'rsatlayotgan xizmat
nisbatan kelgusi yilda gazga asoslangan ehtiyojni taqdim etadi).

Iste'molchi joriy yilning 15 iyul kuniga qadar kelgusi yilda iste'mol qilinishi taxmin
qilinayotgan gaz hajmi bo'yicha buyurtma beradi.

1.4. Iste'molchi bilan kelishilgan buyurtma bo'yicha etkazib beriladigan
gaz hajmi texnik shartlarda belgilangan bosim va hajmda 2022 yilda 18180 kub.m, narxi
143.660 ming so'mni tashkil qiladi, jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagicha
taqsimlanadi: 1998800 (5x 6x) umumiy 103 cyun
103 cyun umumiy 103 cyun

I chorak 18180 mingkub.m, yanvar 6060 fevral 6060 mart
II chorak — mingkub.m, aprel — may — iyun
III chorak — mingkub.m, iyul — avgust — sentabr
IV chorak — mingkub.m, oktabr — noyabr — dekabr

Etkazib beruvchi tomondan xizmatlarni to'liq hajmda ko'rsatish uchun magistr va gaz
taqsimoti tarmoqlarining ishlashi izdan chiqqan taqdirda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar
Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorida qayd etilgan strategik va ijtimoiy
ahamiyatga ega Iste'molchilarga 20 yilda zarur bo'lgan tabiiy gazning minimal hajmi
ning kub metrni, shu jumladan choraklar va oylar bo'yicha quyidagini tashkil qiladi:

I chorak — mingkub.m, yanvar — fevral — mart
II chorak — mingkub.m, aprel — may — iyun
III chorak — mingkub.m, iyul — avgust — sentabr
IV chorak — mingkub.m, oktabr — noyabr — dekabr

1.5. Agar, Iste'molchi oylar bo'yicha bo'lingan buyurtmanomani taqdim etmasa, Etkazib
beruvchi tomondan chorak uchun ajratilgan tabiiy gaz hajmi oylar bo'yicha bir xil miqdordagi
taqsimlanadi.

1.6. Etkazib beruvchi Iste'molchi buyurtmalarini tabiiy gaz resurslarining va gazni
taqsimlashning tasdiqlangan balansiga muvofiq ajratilgan hajmlar doirasida qayta ko'rib chiqishi
mumkin. Iste'molchi tomondan navbatdagi oy (chorak) uchun ko'rsatilgan tabiiy gaz hajmlari
o'zgarishi bo'yicha 10 kun oldin gaz ta'minoti tashkilotiga xabar bergan taqdirda, bunday holat
ortiqcha olingan gaz miqdori deb hisoblanmaydi.

II. GAZNI ETKAZIB BERISH SHARTLARI

2.1. Gaz ushbu shartnomada qayd etilgan (1.4-band) muddatlarda va hajmlarda hamda
GOST 5542-2014 (Sanoat va kommunal foydalanish uchun tabiiy yonuvchi gazlar) ga muvofiq
tardagi tabiiy gazni Etkazib beriladi.

2.2. Iste'molchi Etkazib beruvchidan ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlariga asosan
joriy oy uchun gaz iste'molining sutkalik me'yor doirasida gaz qabul qilib oladi, shuningdek, oy
oxirida tuzilgan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini imzolaydi.

2.3. Etkazib beruvchi Iste'molchiga 24 soat ichida gaz etkazib berish va qabul qilish tartibi
va shartlari o'zgarantligi to'g'risida barcha usullar orqali Iste'molchini xabardor qilishi shart.

Etkazib beruvchining avariya-dispatcher xizmatlari telefon raqamlari:

78-150-02-84

Iste'molchi manzili va telefon raqami:

90/522-00-72

2.4. Etkazib beruvchi Iste'molchini gaz etkazib berish qisqartirishiga qadar kamida 24 soat
avval bu haqida xabardor qilishi shart, magistr va quruvchilarning yuz bergan avariya holatlari bundan
mustasno. Iste'molchi xabardor qilingandan keyin gaz etkazib berish darhol qisqartiriladi yoki
to'xtatiladi.

2.5. Magistr va taqsimlovchi gaz quvurlarining texnologik ish rejimlari buzilganida shuningdek, kuz-qish mavsumida ijtimoiy soha ob'ektlarini va aholi istemolchilarini bir maromdagi tabiiy gaz bilan ta'minlash maqsadida Etkazib beruvchi, Iste'molchini ogohlantirgan holda gazni etkazib berishni cheklash yoki to'xtatib qo'yish huquqiga ega, Iste'molchi esa zaxira yoqilg'ini turidan foydalanishga o'tadi.

2.6. Iste'molchi etkazib beruvchi bilan gaz etkazib berish-qabul qilish doirasida tekshirish va ta'minlashni ta'minlash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga oladi.

2.7. Iste'molchi zaxira yoqilg'ini turidan foydalanishni ko'zda tutishi va uni Etkazib beruvchining (3 oйдan kam bo'lmagan muddatga) shakllantirishi shart. Iste'molchi Etkazib beruvchining asoslangan talabi bilan tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq zaxira yoqilg'iga o'tishi va gazdan foydalanishni to'xtatishi lozim. Gaz etkazib berishning to'xtatilishi tegishli dalolatnoma bilan rasmilashiriladi.

2.8. Iste'molchi o'ziga tegishli bo'lgan gaz tarmoqlari va ularda o'rnatilgan uskunalar, GT (gaz taqsimlash punkti), gazdan foydalanish uskunalardan soz holda foydalanish, ularga xizmat ko'rsatish hamda saqlash uchun javobgar hisoblanadi.

2.9. Iste'molchining qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatilishi, rekonstruksiya qilinishi yoki ta'mirlanishi oqibatida gaz sarflash hajmi o'zgarishiga olib kelgan hollarda Iste'molchi Etkazib beruvchidan qo'shimcha gazdan foydalanish uskunalari o'rnatish yoki rekonstruksiya qilishga texnik shartlarni olishi shart. Gaz tarmoqlariga ulanish Tabiiy gazdan foydalanish qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi.

2.10. Iste'molchi yoki Etkazib beruvchining to'lov rekvizitlari o'zgartirilgan holatlarda ulanish bilan bir-birini bu haqida xabardor qilishi shart.

2.11. Tabiiy gazni qazib olish, qayta ishlash, uzatish, taqsimlash va iste'mol qilish rejimining yagona uzluksiz texnologik jarayonini hisobga olib, tabiiy gazni ishlab chiqaruvchi va Etkazib beruvchining talablarini bajarish, Iste'molchilar uchun majburiy hisoblanadi.

III. ETKAZIB BERILGAN GAZNI HISOBGA OLISHNI TASHKIL ETISH

3.1. Gazni hisobga olmasdan etkazib berishga yo'l qo'yilmaydi.

3.2. Etkazib berilgan gaz miqdori gaz tarmoqlari bo'linishi chegarasida o'rnatilgan hisoblash priborlari ko'rsatkichlari yoki o'lchash kompleksi bo'yicha aniqlanadi hamda har ikki tomon imzolaydigan gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasi bilan rasmilashiriladi.

Gaz tarmog'ini bo'linishi chegarasi (Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmog'ini boshlanishi hisoblanib) Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi tegishligi bo'yicha aniqlanadigan gaz tarmog'ini bo'linishi nuqtasi hisoblanadi va unda hisoblash priborlari o'rnatilishi shart.

3.3. Birlik miqdori standart sharoitda 1 m³ gaz olinadi: xarorat 20° C, bosim 101,325 kPa (760 mmHg) (GOST 2939-63 1.1-bandiga asosan). Gaz hajmi gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitda, azot va karbonat angidrid) qiymatlari bo'yicha tuzatiladi.

Gaz miqdori "O'zstandart" agentligining me'yoriy-xuquqiy hujjatlari talablariga muvofiq gaz miqdorini standart sharoitga avtomatik ravishda keltiradigan gazni hisoblash priborlari yordamida aniqlanadi.

3.4. Etkazib beruvchining yoki Iste'molchining balansida bo'lgan gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksi uning mulki hisoblanadi.

3.5. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi tanlovi tegishli qoidalar va me'yorga muvofiq amalga oshiriladi va Etkazib beruvchi bilan kelishiladi. Iste'molchi tomonidan gaz o'lchash pribori va/yoki o'lchov kompleksi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashirilgan tizim (TGHNAT-ASKUG) lariga ulanishi lozim.

3.6. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksi o'rnatish va ishlatish amaldagi qoidalar va me'yorga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

3.7. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksi egasi uni ishlatish davomida O'z DSt 8.030:2008 "Yoqilg'ini va energiya. Hisobga qo'yiladigan umumiy talablar", O'z DSt 8.031:2008 "Yoqilg'ini va energiya. O'lchash priborlari bilan jixozlash va ularni ishlatish" davlat standartlari talablariga, shuningdek o'lchash priborlari ishlab chiqaruvchining talablariga rioya qilish.

3.8. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining metrologik va texnik tavsiflari amaldagi me'yorga va qoidalarga muvofiq bo'lishi kerak.

3.9. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari "O'zstandart" agentligining joriy qiyoslov ko'rigidan o'tkazilgan sertifikatli va/yoki metrologik attestatsiyasiga ega bo'lishi kerak. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarining qiyoslov ko'rikidan va/yoki metrologik attestatsiyasidan o'tish davrimi "O'zstandart" agentligi belgilaydi.

Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslari egasi gaz o'lchash priborlarini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lchov komplekslarini (va uning tarkibiy qismlarini) "O'zstandart" agentligida metrologik attestatsiyadan o'tkazishning o'z vaqtida bajarilishi uchun mas'uldir.

3.10. Rejalashtirilgan ishlarining bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrash, torayish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorga va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

3.11. Rejalashtirilgan ishlarining bir qismi sifatida (qiyoslov ko'rigi/kalibrash, toraytirish moslamasini almashtirish, ta'mirlash) gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish va o'rnatish texnik va/yoki ishlab chiqarish ehtiyojlari asosida kelishuv bo'yicha va ikkala tomonning vakillari ishtirokida amalga oshiriladi.

Gaz o'lchash priborlarini va/yoki o'lchov kompleksining qismlarini echish, o'rnatish, uni ishlab chiqaruvchining talablariga va amaldagi me'yorga va qoidalarga muvofiq egasi (yoki uning servis xizmat ko'rsatuvchi vakili) tomonidan amalga oshiriladi.

Etkazib beruvchining vakilini gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov kompleksining egasi chaqiradi.

3.12. Gaz o'lchash priborlari va/yoki o'lchov komplekslarini modernizatsiya qilish, gaz o'lchash priborlarini almashtirish, gazni o'lchashning boshqa usullarini tanlash masalalari Etkazib beruvchi bilan kelishiladi.

3.13. Gazning fizik-kimyoviy parametrlari (standart sharoitdagi zichlik, azot va karbonat angidrid) gaz o'lchash priborining konfiguratsiyasiga kiritiladi.

Gaz o'lichash priborining egasi gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida gaz o'lichash priborini konfiguratsiyasiga kiritishni ta'minlaydi. Etkazib beruvchi, Iste'molchiga gazning fizik-kimyoviy parametrlarini o'z vaqtida etkazib berilishini ta'minlaydi.

3.14. Etkazib beruvchi o'zining tamg'alarini gaz o'lichash priborlariga va/yoki o'lichash kompleksining gaz hajmini o'lichashga ta'sir qiladigan qismlariga Iste'molchi ishtirokida o'rnatadi va tegishli dalolatnoma tuziladi. O'rnatilgan tamg'alarini butlitigiga Iste'molchi javobgardir.

3.15. Etkazib beruvchi Iste'molchining gaz o'lichash priborlari va/yoki o'lichash komplekslari va ularning tarkibiy qismlarining to'g'ri ishlashini kuzatish xuquqiga ega. Shu bilan birga, Iste'molchi O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq Etkazib beruvchi vakillarining o'lichash priborlari va/yoki o'lichash komplekslariga to'siqsiz kirishini ta'minlaydi.

3.16. O'z DST 8.586.(1-5)-2005 bo'yicha o'lichov kompleksi va o'lichash priborlari ishida g'ayritabiiy holatlar yuzaga kelgan taqdirda O'z DST 8.064:2017 bo'yicha gazning miqdori hisoblanadi (korrektirovka). O'lichash quyilmasi va/yoki o'lichash kompleksi faoliyatiga ruxsatsiz aralashish holatlari bundan mustasno.

3.17. Olingan gaz uchun hisob-kitob, quyidagi hollarda tamg'alanmagan gazda foydalanish uskunasi 24 soat davomida ishlab turishi hisob-kitobidan amalga oshiriladi:

a) gazni hisobga olmagan holda gaz iste'moli - gazni hisoblash pribori va gazni sarf qilish normasi bo'lmaganda, gazni hisoblash priborini chetlab o'tgan xolda iste'mol qilish (noqonuniy baypas liniyalari ulanganda) oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan aniqlanga kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga.

b) hisobga olish priborini ulash tartibi va sxemasi o'zgartirilganda - oxirgi xatlovda o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrga,

v) hisobga olish pribori buzilganda (hisobga olish pribori buzilganligini tasdiqlovchi xujjatlar mavjud bo'lganda) - shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarini inobatga olgan xolda bir hisob kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

g) hisobga olish pribori mavjud bo'lmaganda - qiyoslov ko'rigidan o'tkazish uchun Echlilganda - hisobga olish pribori echlilgan kundan "O'zstandart" agentligidan qiyoslovda o'tkazilib, sertifikat olib joyiga o'rnatilgan kungacha bo'lgan vaqtga;

d) hisobga olish priborini qiyoslov ko'rigidan o'tkazish va/yoki o'lichov kompleksini metrologik attestatsiyadan o'tkazish muddati tugaganda - qiyoslov ko'rigidan metrologik attestatsiyaviy o'tkazish muddati tugagan kundan qiyoslov ko'rigidan yoki metrologik attestatsiya o'tkazish uchun Echlilgan kungacha bo'lgan vaqtga.

e) hisobga olish pribori yoki o'lichov kompleksining qismlariga o'rnatilgan tamg'alarini butlitigi buzilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab lekin bir hisob-kitob davridan ko'p bo'lmagan vaqtga;

f) hisobga olish priborini o'zboshimchalik ehib qo'yilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

g) gazni taqatlash tarmoqlarining texnologik rejimini buzadigan gaz quvurlarida yoki GTPlarida asbob-uskunalar o'rnatilganda - oxirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili bor ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha bo'lgan vaqtga;

i) Gaz hisoblash uskunasi konfiguratsiyalariga noqonuniy tarzda tashqi ta'sir ko'rsatgan holda tabiiy gazni iste'mol qilish holatlari aniqlanganda - tashqi ta'sir ko'rsatilgan kundan boshlab (agar aralashuv kunini va faktini tasdiqlovchi hujjatlar mavjud bo'lsa), biroq da'vo muddatidan ortiq bo'lmagan muddatga;

k) hisobga olish priborining xo'irasida saqlanadigan arxiv ma'lumotlarini yo'qotish, gaz o'lichashni avtomatlashtirilgan tizimidan hisobot o'yida ma'lumotlar olish imkoni bo'lmaganda yoki Etkazib beruvchining operativ jumallaridan olingan ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda. (Hisob-kitob uchun TGHNAT (ASKUG) tizimi joriy qilingan iste'molchilarda hisobot davri uchun arxiv ma'lumotlari mavjud bo'lmagan hollarda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmlari to'g'risidagi ma'lumotlar TGHNAT tizimida qayd etilgan ma'lumotlardan olinadi);

l) gaz iste'moli hajmlari hisobga olish priborining ruxsat etilgan maksimal o'lichov chegarasidan ortiqcha bo'lganda, plombalanmagan gaz jihozlaridan foydalanilgan gaz uchun hisob-kitoblar oxirgi xatlovdan o'tkazish dalolatnomasi tuzilgan kundan, xatlov dalolatnomasi mavjud bo'lmaganda esa - gaz ta'minoti tashkiloti vakili tomonidan ohirgi marta borib ko'rilgan kundan amalga oshiriladi;

m) gazlashtirish xujjatlarini rasmiylashtirmasdan iste'molchi tomonidan qo'shimcha gaz quyilmasi o'rnatish holati aniqlanganda (qo'shimcha gaz anjomlarini o'rnatib olib foydalanayotganlik fakti bo'yicha asoslaniruvchi hujjatlar mavjud bo'lganda) - bir hisob-kitob davriga;

3.18. Iste'molchining hisobga olish pribori gaz hajmini pastki chegarasi ostida sarflaganda, gaz hajmi hisobga olish pribori va/yoki o'lichov kompleksining me'yoriy-texnik xujjatlarida ko'rsatilgan o'lichovning pastki chegarasida olinadi.

3.19. Etkazib beruvchi tomonidan etkazib beriladigan gaz hajmining ishonchligiga ta'sir ko'rsatuvchi o'lichov komplekslari va hisoblash priborlarining ishlashi buzilgan holatlar aniqlanganda, Etkazib beruvchi "O'zstandart" agentligi bo'limalarida o'lichov komplekslari va gazni hisoblash priborlarini ekspertizadan o'tkazishni talab qilish huquqiga ega.

Agar o'lichov komplekslari va hisoblash priborlari nosoz bo'lsa, ekspertizadan o'tkazganlik uchun to'lovlar Iste'molchi tomonidan, soz holatda bo'lganda esa - ekspertiza o'tkazilishi talab qilgan Taraf tomonidan amalga oshiriladi.

3.20. Agar hisobga olish pribori ishdan chiqqandayoki hisobga olish priboridan gaz sizib chiqish holatlari aniqlangan taqdirda Iste'molchi 24 soat ichida Etkazib beruvchiga bu haqda xabar berishi shart. Shuningdek korxonadagi gaz ishladigan asbob-uskunalarini ishlash grafimini tuzishi va ishlamaydigan gaz asbob-uskunalarini Etkazib beruvchi bilan birgalikda o'chirib tamg'alanishini ta'minlashi shart.

3.21. Hisobga olish priborlarida gaz sizib chiqish xolati aniqlangan taqdirda qayta hisob-kitoblar ohirgi ko'rik yoki gaz ta'minoti tashkiloti vakili borib ko'rgan vaqtdan boshlab aniqlangan kungacha, lekin da'vo muddatidan ko'p bo'lmagan davrda amalga oshiriladi. (O'z DST 8.586 ga ko'ra gazni aniqlash tizimlari germetik holatda bo'lishi kerak).

IV. ETKAZIB BERILGAN GAZ UCHUN HISOB-KITOBNI AMALGA OSHIRISH

4.1. Iste'molchi mazkur shartnoma asosida etkazib berilgan gaz uchun to'lovni amalga oshirishi shart.

4.2. Gaz uchun narxlar O'zbekiston Respublikasi Moliya Vazirligi tomonidan amaldagi qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

4.3. Iste'molchi hisob-kitob qilish davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin Etkazib beruvchining hisob raqamiga ushbu shartnomaning 1.4 va 1.5-bandlarida ko'rsatilgan oylik gaz hajmi qiyomatining 100 foiz summasini oldindan to'laydi.

Hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin hisob-kitobni 50 foiz oldindan ha to'lash asosida amalga oshirish xohishini bildirgan iste'molchilar hisob-kitob amalga oshiriladigan davrni ko'rsatib etkazib berilgan tabiiy gaz uchun 50 foiz oldindan haq to'lash asosida hisob-kitob qilish to'g'risida Etkazib beruvchiga bildirgi tartibida murojaat qilishga haqlidir. Bunday holatlarda iste'molchilar hisob-kitob davri boshlanishidan kamida 5 kun oldin, gaz ta'minoti tashkilotining hisob raqamiga tabiiy gaz etkazib berishga tuzilgan shartnomada ko'rsatilgan oylik tabiiy gaz hajmi qiymat summasi 50 foizi miqdorida oldindan haq to'lashlari shart. Amalda iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmi uchun yakuniy hisob-kitob, hisobot oyining oxirigacha amalga oshiriladi.

4.4. Iste'molchiga gaz oldindan to'lovsiz etkazib berilmaydi.

4.5. Oldindan to'lov amalga oshirilmagan taqdirda, Iste'molchiga gaz etkazib berilmaydi (strategik korxonalar va ijtimoiy ahamiyatga ega iste'molchilar bundan mustasno).

4.6. Iste'molchi har oyning 10 sanasiga qadar avvalgi oyda iste'mol qilingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshirishi kerak.

4.7. Strategik va ijtimoiy ahamiyatga ega Iste'molchilar hisob-kitob qilish oyi tugaganda keyin 30 kun mobaynida olingan gaz uchun yakuniy hisob-kitobni amalga oshiradilar.

4.8. Tabiiy gazdan foydalanishda Iste'molchining aybi bilan tabiiy gaz etkazib berish shartnomada ko'rsatilganidan hajmdan kam foydalanilgan taqdirda, avans tarzida to'lana mablag'lar qaytarilmaydi, ko'rsatib o'tilgan mablag'lar esa kelgusida gazdan foydalanishda hisob olinadi.

4.9. Iste'molchi tomonidan tabiiy gaz etkazib berish uchun tuzilgan shartnomada belgilanganidan ko'p hajmda va gaz ta'minoti tashkiloti bilan oldindan kelishilmasdan gaz olingan taqdirda, Iste'molchidan shartnomadagi hajmlardan ortiqcha olingan tabiiy gaz qiymatiga nisbatan 1 ko'effitsient bilan oshirilgan to'lov undiriladi.

Bunda, belgilangan tartibda hisoblash priborini almashtrish, ta'mirlash, xizmat ko'rsatish tekshirish va sozligini monitoring qilish uchun echib olish, shuningdek, Iste'molchiga aloqade bo'lmagan turli hil (elektr ta'minoti nosozligi, chaqmoq, qisqa tutashuv va x.k.)dagi texnik nosozliklarni aniqlanganligi sababli, iste'mol qilingan tabiiy gaz hajmini o'rnatilgan gaz asbob uskunalarini to'lov quvvati bo'yicha hisob-kitob qilinishi natijasida shartnomadagi hajmlardan ortiq hajmlarni tashk qilgan holatlardan bundan mustasno.

4.10. Tabiiy gaz uchun Iste'molchining qarzi mavjud bo'lgan taqdirda, uning avans to'lovi hisobiga o'tkazilgan mablag'lari, Iste'molchini xabardor qilgan holda qarzni qoplashga yo'naltiriladi va avans to'lovi sifatida hisobga olinmaydi.

4.11. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz qiymati o'vaqtida to'lanmaganda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasi 0,4 foizi miqdorida, lekin muddati o'tgan to'lov summasi 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

4.12. Hisob-kitob o'yida etkazib berilgan tabiiy gaz hajmi Etkazib beruvchi vakillari tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priboridan ko'rsatkichlarni yozib olish (TGHNAT) ulangan, shuningdek, tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlariga ega bo'lmagan va belgilangan me'yorlar bo'yicha hisob-kitob qiladigan iste'molchilar bundan mustasno) asosida keyinchalik yozib olingan ko'rsatkichlar «Askuyur» tizimiga kiritish, shuningdek, iste'molchilar tomonidan tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarni interaktiv xizmat vositalaridan foydalanilgan holda kiritish orqali aniqlanadi.

4.13. Shartnomaning 4.12-bandiga asosan ko'rsatkich olinganidan so'ng keyingi oyning 5 kuniga qadar Etkazib beruvchi tomonidan hisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtiriladi. Rasmiylashtirilgan gaz Etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan iste'molchiga elektron hisobvaraq-faktura yuboriladi.

4.14. Etkazib beruvchi va Iste'molchi o'rtasidagi hisob-kitoblarning haqqoniyligini ta'minlash uchun hisobot davrida gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasi Iste'molchida quyidagi texnik hujjatlar mavjud bo'lganda rasmiylashtiriladi:

a) gazni hisoblash pribori hoirasidan hisobot davri uchun olingan (ko'chirma) arxiv ma'lumotlari;

b) Iste'molchiga taqdim etiladigan, Iste'molchining bo'linish chegarasigacha bo'lgan joydagi gaz tarmoqlari va GTQlardagi texnologik yo'qotishlarning hajmi to'g'risidagi dalolatnomaning mavjudligi; Bunda Iste'molchi balansida bo'lgan gaz tarmoqlari va GTQdagi texnologik yo'qotishlar Iste'molchi hisobiga olib boriladi.

4.15. Iste'molchi oyning 7 kundan kechiktirmasdan Etkazib beruvchidan xisob-kitob oyi uchun gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini qabul qilib oladi, imzolaydi va bir nusxasini Etkazib beruvchiga jo'natadi. Rasmiylashtirilgan gaz etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasiga asosan elektron hisobvaraq-fakturani qabul qiladi.

4.16. Tabiiy gazni etkazib berish-qabul qilish dalolatnomasini imzolamaslik yoki uni o'tirozlar bilan imzolash Iste'molchini ko'rsatib o'tilgan tabiiy gaz hajmlari uchun to'lovlardan ozod qilmaydi. Uzatilgan yoki qabul qilingan gaz miqdorini aniqlashdan norozi bo'lgan tomon dalolatnomada norozilik sabablarini majburiy aks ettirish yo'li bilan hisob-kitob qilish oyi tugagandan keyin 10-kungacha boshqa tomonga bu to'g'rida ma'lum qilib, so'ng dalolatnomaning bir nusxasini Etkazib beruvchi vakiliga taqdim qiladi. Ushbu masalani o'zaro hal etish imkoniyati bo'lmaganda, kelishmovchilik sabablari belgilangan tartibda ko'rib chiqilishi kerak.

4.17. Iste'molchidan debitor qarzlarni undirish, Etkazib beruvchi tomonidan qonunda belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

4.18. Gaz uzib qo'yilganidan so'ng o'zboshimchalik bilan qayta ulanganda, iste'mol qilingan gaz hajmi va uning qiymati gaz uzib qo'yilgan kundan boshlab, ulangan gazdan foydalanish uskunasi bir sutkada 24 soat ichida to'liq quvvat bilan ishlab turishi hisobidan aniqlanadi.

4.19. Gaz uchun amaldagi tariflar (narxlar) o'zgaragan taqdirda, Etkazib beruvchi bu haqdagi axborotni o'n besh kun oldin ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qiladi. Gaz uchun tariflar o'zgaraganda, mazkur shartnoma o'z kuchida qoladi, iste'mol qilingan gaz uchun to'lov esa yangi tarif asosida, u qonunda belgilangan tartibda kuchga kirganidan so'ng amalga oshiriladi. Bunda iste'molchi tabiiy gazning avans tariqasida to'langan hajmi uchun to'lov kumidan boshlab ko'pi bilan keyingi 1 oy qo'shimcha to'lov to'lashdan ozod qilinadi.

V. HUQUQBUZARLIKLAR VA GAZDAN NOQONUNY FOYDALANISH UCHUN JAVOBGARLIK

5.1. Gazdan foydalanishda Iste'molchi tomonidan mazkur shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandida ko'rsatib o'tilgan huquqbuzarliklarga yo'l qo'yilishi, Etkazib beruvchi va

Iste'molchi vakillari tomonidan imzolangan va ikki nusxada tuziladigan dalolatnomasi bilan rasmiylashtiriladi.

5.2. Ushbu shartnomaning 5.1.-bandiga asosan rasmiylashtirilgan dalolatnomaga muvofiq iste'molchidan, foydalanigan gaz hajmi qiymati (amaldagi tariflar bo'yicha) undirib olinadi.

5.3. Bunda mazkur shartnomaning 5.2.-bandida ko'rsatilgan holatlarda gaz hajmi qiymatining undirilishi iste'molchini qonunchilikda belgilangan javobgarlikdan ozod qilmaydi.

VI. TARMOQDAN UZIB QO'YISH VA QAYTA

ULANISH TARTIBI

6.1. Iste'molchida quyidagi holatlarning mavjudligi hamda ushbu holatlarning bartaraf etilgunga qadar gaz tarmoqlaridan uzib qo'yiladi:

- shartnomaviy majburiyatlarni bajarilmaganda;
- Etkazib beruvchi vakillarini gazdan foydalanish uskunalari va hisobga olinayotganlarini nazoratdan o'tkazishga yo'l qo'yilmaganda;
- foydalanilgan gaz uchun hisob-kitob o'z vaqtida amalga oshirilmaganligi natijasida qarzdorlik mavjud bo'lganda;
- shartnomada belgilangan buyurtmalarga etarli miqdorda oldindan to'lovlar amalga oshirilmaganda;
- Etkazib beruvchini va "O'zneftgazinspeksiya"ning ko'rsatmalari bajarilmaganda;
- hisoblash priborlariga qasddan zarar etkazilganda, pribor ko'rsatgichlarini o'zgartirish maqsadida ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi xatti-harakatlar amalga oshirilgan holatlarda;
- gazni hisobga olish priborlariga tashqi ta'sir ko'rsatishga harakat qilish;
- Gazdan foydalanish qoidalariga zid ravishda gaz tarmoqlariga noqonuniy ulanish yoki boshqa qoidabuzarliklar yohud gazni talon-taraj qilish holatlari aniqlanganda;

Bunda Etkazib beruvchi, gaz ta'minotining o'chirilishi natijasida Etkazilgan moddiy zararni yoki boy berilgan foyda uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

6.2. Tarmoqqa qayta ulanishda amaldagi qonunchilikka muvofiq iste'molchidan bazaviy hisoblash miqdorining o'n baravari miqdorida haq undiriladi. Shartnomaning 13.1.-bandida ko'rsatilgan hollar bundan mustasno.

6.3. Gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilgan tizimi (TGHNAT) loriga ulangan iste'molchilarni masofadan qayta ulash uchun haq undirilmaydi.

VII. TARAF LAR NING H U Q U Q L A R I VA MAJ B U R I Y A T L A R I.

7.1. Etkazib beruvchi quyidagilarga majbur:

- o'ziga qarashli bo'lgan gaz tarmoqlarini soz holatda saqlash va ularni o'z hisobidan ta'mirlash-tiklash;
- o'ziga qarashli gaz tarmoqlarining texnik holatini va ularda ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash uchun davriy ko'zdan kechirish; - tabiiy gaz etkazib berish qisqargan yoki to'xtagan taqdirda bu to'g'rida iste'molchilarni xabardor qilish;

- gaz hisoblash uskunalaridan olingan arxiv ma'lumotlarni, elektron ma'lumotlarning barcha parametrlarini kamida uch yil mobaynida o'zida saqlanishini ta'minlash;

- shartnomaning 3.17. va 4.18.-bandlariga ko'rsatilgan holatlar sodir etilganligi va ushbu holatlarni bartaraf etilgunga qadar tabiiy gaz ta'minotini qo'shimcha ogohlantirishsiz tarmoqdan o'chirish;

- tabiiy gazning ruxsatsiz iste'mol qilinganligi, gaz tarmoqlari moddiy boyliklarining talon-taraj qilinganligi to'g'risida huquqni muhofaza qilish organlarini xabardor qilish;

- Iste'molchiga gaz Etkazib berish shartnomasida kelishilgan shartlar asosida gazni Etkazib berish;

- qonunda nazarda tutilgan tartibda monopoliyaga qarshi davlat organining taqdimnomasiga asosan shartnomaga o'zgartirishlar kiritish;

- Etkazib beruvchi va vakolati davlat organlarining majburiy ko'rsatmalarini bajarish;

- texnik xizmat ko'rsatish shartnomalariga muvofiq iste'molchilarning ichki gaz tarmoqlari, gazdan foydalanuvchi uskunalarini texnik taftishdan o'tkazish va ularga profilaktika xizmat ko'rsatish;

- tabiiy gaz sizib chiqishida — dathol;

- o'vqat tayyorlash uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida — bir kun davomida;

- ititish mavsumida isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarning nosozligida — bir kun davomida;

- issiq suv va isitish uchun mo'ljallangan gazdan foydalanish uskunalarining nosozligida (isitish mavsumidan tashqari vaqtda) — ikki kun davomida;

- Gazdan foydalanish uskunalarini 5 sutka muddat ichida almashtirish;

Etkazib beruvchi qonunchilikka muvofiq boshqa majburiyatlarga ham ega bo'lishi mumkin.

7.2. Etkazib beruvchi quyidagi huquqlarga ega:

- texnik zaruratga ko'ra, iste'molchini belgilangan tartibda xabardor qilgan holda, tabiiy gazni Etkazib berishni qisqartirish yoki to'xtatish;

- gaz ta'minoti tarmoqlariga ruxsatsiz ulanish holatlari aniqlanganda ularni belgilangan tartibda gaz tarmog'idan uzib qo'yish;

- Iste'molchilardan tabiiy gazdan foydalanish qoidalari va gazni Etkazib berish shartnomasi talablariga rioya etishni talab qilish;

- tabiiy gazni Etkazib berish shartnomasini ijro qilishdan qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama voz kechish;

- gaz tarmoqlarida avariyaning oldini olish yoki bartaraf etish yuzasidan kechiktirib bo'lmaydigan choralarini ko'rish zarurati yuzaga kelganda, iste'molchi bilan kelishmasdan va uni ogohlantirmasdan hamda zudlik bilan xabardor qilgan holda, tabiiy gazni etkazib berishni to'xtatish yoki cheklash;

- ushbu shartnomada nazarda tutilgan xolatlarda, aniqlangan qoidabuzarliklar

hajmi uchun to'langan summamni qaytarish;
- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasini qonun hujjatlariga muvofiq bir tomonlama bekor qilish;

2.5. va 6.1. bandlari bundan mustasno);
- tabiiy gazni etkazib berish to'xtatilganda, zararni qoplashni talab qilish (shartnomaning - gaz etkazib berishni vaqtincha to'xtatishni.
Iste' molchi konunchilik hujjatlarida belgilangan boshqa huquqlarga ega bo'lishi mumkin.

VIII. TARAFLARNING MODDIY JAVOBGARLIGI

8.1. Etkazib beruvchilic' molchiga gaz etkazib berish shartnomasiga asosan gaz etkazib berilmagan yoki to'liq etkazib berilmaganligi oqibatida etkazilgan moddiy zarar va boy berilgan foydani belgilangan tartibda qoplaydi.

Etkazib beruvchi gazni etkazib bermaganlik yoki to'liq etkazib bermaganlik uchun quyidagi hollarda javobgar hisoblanmaydi:

a) Iste' molchi tomonidan gaz ta'minoti tarmoqlariga qo'shimcha gazdan foydalanish uskunasini ruxsatsiz ulash holati aniqlanganda;

b) foydalanilgan gaz uchun to'lov amalga oshirilmaganda;

v) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan holatlarda.

g) iste' molchi tomonidan shartnoma talablariga amal qilinmaganida;

d) mazkur shartnomaning 2.5. va 6.1. bandlarida ko'rsatilgan hollarda.

8.2. Etkazib beruvchi tomonidan shartnoma majburiyatlarining bajarmasligi natijasida iste' molchiga moddiy zarar etkazilganda, Etkazib beruvchining mansabdor shaxsiga nisbatan bazaviy hisoblash miqdorining o'n barobaridan o'n besh baravari miqdorida jarima qo'llanadi.

8.3. Shartnomada ko'rsatilgan hajmdan kam hajmda gaz etkazib berilgan taqdirda, Etkazib beruvchiga nisbatan O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurtuvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni asosida jarima sanksiyalari qo'llaniladi, quyidagi holatlar bundan mustasno:

a) fors-major holatlar;

b) magistral gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida avariya holatlari yuz berganda;

v) qish davrida vaqtincha gaz etkazib berish cheklanganida (O'zbekiston

Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2008 yil 24 dekabrda 277-son qarorlari, shuningdek, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahri hokimliklari qarorlari bilan tasdiqlangan gaz etkazib berish tarmog'idan uzib

bartaraf etilgumiga qadar avvaldan ogholantirmagan holda gaz etkazib berishni to'xtatish.

- tabiiy gaz etkazib berish shartnomasini bir tomonlama bekor qilish.

7.3. Iste' molchi quyidagilarga majbur:

- hisobot oyida tabiiy gaz etkazib berish va qabul qilish dalolatnomasini va hisob varaqasini rasmiy/ashirish uchun har oyning 5-sanasigacha Etkazib beruvchiga elektron ga hisobdonini arxiv ma'lumotlari (raspechatka) yoki gazni hisobga olish priborlarining ko'rsatkichlarini taqdim etish.

- Iste' molchi bajarilgan ishlar to'g'risida dalolatnomada ko'rsatilgan rekvizitga asosan Etkazib beruvchiga 100 foiz to'lov amalga oshiradi.

- gazdan oqilona va tejankorlik bilan foydalanish;

- gaz xo'jaligi gaz quvurlari va uskunalarini texnik jihatdan soz holatda saqlash;

- gaz tarmoqlarida yoki gazdan foydalanish uskunasida vujudga kelgan tabiiy gaz sizi chiqishi holati haqida gaz ta'minoti tashkiloti dispetcherlik xizmatlarini zudlik bilan xabardor qilish;

- o'zining gaz tarmoqlari daxlsizligini ta'minlash va ehtimoli bo'lgan ruxsatsiz ulanishlarni aniqlash maqsadida ularni va ulardagi uskunalarini muntazam ravishda ko'zdan kechiri chiqish;

- gaz ta'minoti tashkilotlari gaz tarmoqlariga sertifikatlanmagan, gazlashtirish loyihasig (LTH) muvofiq bo'lmagan gazdan foydalanish uskunasining ulanishiga yo'l qo'ymaslik;

- gaz Etkazib beruvchi vakillari va "O'zneftgaznspeksiya" xodimlarining (tegish guvohnoma ko'rsatilgan taqdirda) tabiiy gazni iste'mol qilishni hisobga olish priborlarini va/yoki gazdan foydalanish uskunasini kunning istalgan vaqtida erkin ko'zdan kechirishini ta'minlash;

- gazdan foydalanish uskunasidagi nosozliklarni (bunday turdagi ishlarni bajarish huquqiga ega bo'lgan ixtisoslashtirilgan brigadalar yoki xodim yordamida) bartaraf etish;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ko'rsatkichlarini o'zgartirish maqsadid ularning ishlashiga to'sqinlik qiluvchi harakatlarni amalga oshirmaslik, ularning qasddan buzilishig yo'l qo'ymaslik va o'rnatilgan tang'alarining butumligini ta'minlash;

- tabiiy gaz iste'molini hisobga olish priborlari ishidagi nosozlik aniqlangan taqdirda, ga ta'minoti tashkilotini o'zi uchun qulay shaklda darhol xabardor qilish.

- Gaz tarmog'i bo'limishi chegarasida tabiiy gaz sarfi bo'yicha ma'lumotlarni masofada olish imkoniyatini beruvchi gaz iste'molini hisobga olish va nazorat qilishning avtomatlashtirilga (TGHNAT-ASKUG)uzimiga ulangan hisoblash priborlari Iste' molchi tomonidan o'rnatish.

7.4. Iste' molchi Etkazib beruvchidan quyidagilarni talab qilish huquqiga ega:

- Etkazib berilgan tabiiy gazning aniqlangan hajmiga va boshqa parametrlarga noro bo'lgan taqdirda, Etkazib beruvchining tabiiy gazni iste'molini hisobga olish priborlari ishlashini ishonchligini tekshirish uchun komissiya tashkil etish;

- tabiiy gazning standartlashtirish bo'yicha normativ hujjatlarda ko'zda tutilgan sifatda v Etkazib berish rejimiga rioya qilgan holda uzatilishi;

- tabiiy gazni etkazib berish shartnomasi bekor qilinganda, foydalanilmagan gaz

qo'yilmaydigan ob'ektlar ro'yxatiga kiritilgan korxonalardan tashqari);

g) shartnoma asosida Iste'molchi tomonidan o'z zimmasiga olingan majburiyatlari bajarilmaganda.

8.4. Etkazib berilgan tabiiy gazning sifati shartnoma yoki normativ hujjatlar talablariga mos kelmaganda, Iste'molchi gaz qabul qilish yoki uning uchun haq to'lashni rad etganda Etkazib beruvchidan etkazib berilgan sifati zarur darajada bo'lmagan gaz hajmi qiymatining 20 foiz miqdorida jarima to'lashni talab qilish huquqiga ega. Agar, gaz qiymati to'langan bo'lsa, Iste'molchi Etkazib beruvchidan belgilangan tartibda to'langan summamni qaytarishni talab qilish huquqiga ega.

8.5. Etkazib beruvchi tomonidan shartnomada ko'rsatilgan hajmlardan kam gaz etkazib berilganda, Etkazib beruvchi Iste'molchiga muddati o'tgan har bir kun uchun majburiyatlarini bajarilmagan summasining 0,5 foizi miqdorida, biroq Etkazib berilmagan gaz qiymatining 50 foizida oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

8.6. Shartnomada ko'rsatib o'tilgan muddatlarda etkazib berilgan gaz har o'z vaqtida to'lanmagan taqdirda, Iste'molchi muddati o'tgan har bir kun uchun muddati o'tgan to'lov summasining 0,4 foizi miqdorida, biroq muddati o'tgan to'lov summasining 50 foizidan oshmaydigan miqdorda penya to'laydi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI TALABLAR

9.1. Ushbu shartnomaning har bir taraflari bir-biriga nisbatan amaldagi korruptsiyaga qarshi kurash talablari, shu jumladan, bu bilan cheklanib qolmasdan, barcha amaldagi qonun va qoidalar o'ldirish talablari va talablarni tadbiiq etilishini ifodalaydi va kafolatlaydi.

9.2. "Iste'molchi" "Etkazib beruvchi"ga mazkur shartnoma doirasida quyidagilarni kafolatlaydi va quyidagi majburiyatlarni ham o'z zimmasiga oladi: Shartnomaning amal qilish muddati davomida u (shuningdek, uning xodimlari, direktorlari, agentlari va boshqa vakillari) iste'molchi manfaatlari uchun agent yoki vakil sifatida harakat qilib, "Etkazib beruvchi"ning korruptsiyaga qarshi amaldagi talablariga va O'zbekiston Respublikasining barcha qonun va qoidalariga qat'iy rioya qilindi.

X. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

10.1. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalar yuzaga kelgan taqdirda tomonlar qoidaga ko'ra, ularni sudgacha hal etish choralarini ko'radilar.

10.2. Kelishmovchiliklar va nizoli masalalarni hal etish uchun taraflar belgilangan tartibda javobgar joylashgan joydagi tegishli sudga murojaat qilishga haqlidir.

10.3. Shartnoma shartlarini bir tomonlama rad etish va bir tomonlama o'zgartirishga yo'l qo'yilmaydi, qonunda belgilangan holatlar bundan mustasno.

XI. FORS-MAJOR HOLATLAR

11.1. Tomonlar:

a) tabiiy ofatlar;

b) magistratlar gaz quvurlarida va gaz tarmoqlarida, gazni qayta ishlash korxonalari va gaz qazib chiqarish joylarida kutilmagan avariya vaziyatlari yuzaga kelganda, shuningdek Engib bo'lmagan kuchlar tufayli sodir bo'lgan tabiiy ofatlar, xususan, sel, yomg'ir, suv toshqini, yong'in chiqishi, er qumirlashi, virus tarqalishi va pandemiya davrida hamda Hukumat qaroriga asosan taraflar shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish imkonini bo'lmay qolganda javobgarlikka jalb etilmasdan, gaz Etkazib berishni to'xtatish, qisqartirish yoki munosabtlarni to'xtatish huquqiga ega bo'ladilar.

11.2. Fors-majior holatlar yuzaga kelgan taqdirda, taraflar har qanday aloqa vositasi yordamida bir-birini xabardor qilishi kerak.

11.3. Agar, ko'rsatilgan holatlar 90 kundan ortiq kun mobaynida saqlanib tursa, tomonlar muzokaralar yo'li bilan shartnomani kelgusida bajarish to'g'risidagi qaror qabul qiladilar.

XII. SHARTNOMANING AMAL QILISHI

12.1. Ushbu shartnomaga o'zgartirish va qo'shimchalar yozma ravishda hamda taraflar tomonidan imzolash kerak.

12.2. Budget tashkilotlari uchun shartnoma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007 yil 28 fevraldagi PQ-594-son qaroriga asosan G'aznachiilik bo'limi tomonidan majburiy tartibda ro'yhatdan o'tkazilgan kundan boshlab kuchga kiradi.

12.3. Shartnoma 2022 yil 31 dekabrgacha bo'lgan muddatga tuzilgan. Shartnomaning muddati tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaat qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi.

Budjet tashkilotlari uchun shartnoma bir yilga tuziladi, shartnomaning muddat tugaganidan keyin, agar tomonlardan biri shartnomani bekor qilish to'g'risida talab bilan murojaa qilmagan bo'lsa, shartnoma keyingi yilga uzaytirilgan hisoblanadi. Budjetdan mablag' oluvchilar ha yili 2022 yil 31 dekabr sanasiga" amal qiliblar lozim.

12.4. Tomonlarning ushbu shartnoma bo'yicha da'volari da'vo qabul qilingan kundat boshlab 30 kun mobaynida ko'rib chiqiladi.

XIII. YaKUNLOVCHI QOIDALAR

13.1. Ushbu shartnoma tomonlarning har biri uchun uch nusxada tuzilgan, uchta nusxas ham bir hil yuridik kuchga ega.

XIV. TOMONLARNING BANK REKVIZITLARI VA MANZILI:

<p>«ETKAZIB BERUVCHI «Xududgazta'minot» AJ «Xududgaz Toshkent» filiali</p>	<p>«ISTE'MOLCHI»</p>
<p>100115, Toshkent Viloyati, Nurafshon shaxri, Sport kuchasi 37-A uy</p>	<p>№: 90-522-00-72 (budjet tashkilotlari, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar nomi)</p>
<p>Manzili: Tel./faks: (78) 150-31-30, (78) 150-30-95</p>	<p>Pochta manzili:</p>
<p>Bank nomi: «Uzsanootqurilishbank» Rakat f-li</p>	<p>OKPO kodi</p>
<p>MFO: 00435</p>	<p>OKED</p>
<p>INN: 306605769</p>	<p>Ташкент вилоятлик расхотфазик ривожланиши бузилган бошлукот телелони Манзил: «Худуд газта минот», А.Кодирид кучеси 9-уй. П/с № 90-522-00-72 ИНН 202079725 ОКЭД 86220-01. Уз.Рес. Молия вазирлиги ЕЗНАЧИЛИГИ Р/с № 03402000300100001010 ИНН 00014 ИНН 201122919 М/с № 00014 М/с № 00014 М/с № 00014</p>
<p>OKED: 35220</p>	<p>h/r</p>
<p>X/R: 22634000505113960438</p>	<p>(g'aznachilik bo'inmami nomi)</p>
<p>Rahbar: M.R.Anliev</p>	<p>Rahbar: P.M.Tg'atavazopova (F.I.Sh.)</p>
<p>Imzosi:</p>	<p>Imzosi: (F.I.Sh.)</p>
<p>Muhr o'rmi</p>	<p>Muhr o'rmi</p>

Yuridik maslahatchi xulosasi: Men, fabriy-gazni etkazib berish va qabul qilishga oid mazkur shartnoma loyixasini o'rganib chiqib, shartnomaning majburiyatlari O'zbekiston Respublikasi «Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnomaviy-xuquqiy bazasi to'g'risida»gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining tegishli moddolari va boshqa normativ xujjatlar talablariga rioya etilgan xolda tuzilganligini e'tirof etib, shartnoma loyixasini o'rnatilgan tarixda imzolashiga tavsiya qilaman.

Bo'yuch M.Y. Raipov (F.I.Sh.)
(sah)

